

IX-XIII Asrlarda Movarounnahrning Siyosiy-Tarixiy Geografiyası

Bibirajab Mirjonovna Yuldasheva¹, Sarvinoz Jasur qizi Islomova²

Annotasiya: Mazkur maqolada IX-XIII asrlarda Movarounnahr zaminida hukmronlik qilgan davlatlarning siyosiy tarixiy geografiyası haqida so’z boradi. Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G’aznaviylar, Saljuqiy va Xorazmshohlarning davlat boshqaruv tizimini, hokimyat almashinuvlari, o’sha davrda jory etilgan lavozimlar hamda mazkur davlatlardagi siyosiy jarayonlari haqida ham ma’lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: Amudaryo, Sirdaryo, Movarounnahr, arablar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G’aznaviylar, Saljuqiy, Anushtegin.

KIRISH

Movarounnahr Amudaryo va Sirdaryo oralig’idagi geografik hudud sanaladi. VII asrda arablar Xurosonni egallaydi va Amudaryoning shimolidagi hududlarga yo’l ochiladi. Arablar bu hududlarni Movarounnahr, ya’ni “daryoning narigi tomoni” deb nomlaydi.

Movarounnahr va Xurosonning forsiy-dariy tilida so’zlashuvchi aholisi X asrdan boshlab o’zini “tozik”- ya’ni “tojik” deb yuritila boshlaydi. Somoniylar va Qoraxoniylar (IX asr o’rtalaridan 1213-yilgacha) dan tashqari hukmronlik qilgan keyingi sultonlar G’aznaviylar (997-1187), Saljuqiyalar (1040-1157, Xorazmshoh-anushteginiylar (1097-1231)ning barchasi turkiy qavmga tegishli bo’lib, o’z vaqtida O’rta Osiyo, balki O’rta Sharqda ham hukmronlik mavqeiga ega bo’lganlar. Mo’g’ullar istilosiga garchi aholi boshiga og’ir kulfat va yo’qotishlar olib kelgan bo’lsa-da, tadqiqotchilar fikricha, o’zbek xalqi etnogeneziga ta’sir etmagan ekan [1]. Mo’g’ullarning istilosiga haddan tashqari vayrongarchilik keltirgan bo’lsa ham, o’zbek xalqining etnogeneziga ta’sir qilmaydi. Vaholanki, X asrda kirib kelgan qarluq va o’g’uzlar hozirgi Markaziy Osiyoda yashaydigan xalqlar etnogenezida muhim rol o’ynaydi(Юлдошева, 2022).

IX-XIII asrlar ma’naviy hayotida islam dini muhim rol o’ynaydi. Bu davr musulmon Sharqida keng tarqalib, jahon dini darajasiga ko’tarilgan islam dini va shariat masfkurasiga aylandi. Arab xalifaligining olib borgan siyosati natijasida o’zining barcha haq-huquqlaridan ajralib, madaniyati oyoqosti qilingan Movarounnahr aholisi o’z e’tiqodi va xat-savodidan mahrum bo’lib, islam dinini qabul qilishga, shariat ahkomlari bajarishga, shuningdek, arab tili va yozuvini o’rganishga majbur bo’ldi. Ko’p vaqt o’tmay e’tiqodli xalq yod arab imlosida xat-savod chiqarishga kirishadi. Masjid va xonaqohlar savod maktabiga aylanib, imomu mutavallilar ustozu mukkamlim vazifasini bajaradi. [11] Bundan shuni anglashimiz mumkinki, arablar bizni yagona din maslak ostida birlashtirishga urindi(Mirjonovna, 2021).

IX asr boshlarida abbosiylar sulolasi hukmronlik qilib kelayotgan xalifalik davlatining ichki hayotida chuqur ziddiyatlari jarayonlar yuz bera boshlaydi. Xalifa Xorun ar-Rashid (786-809) vafotidan so’ng uning o’g’illari - Amin va Ma’mun o’rtasida toj-u taxt uchun kurash kuchayib ketdi. 809-813-yillardagi murosasiz kurash natijasida Ma’mun g’alaba qozondi. Xurosonlik Tohir ibn Husayn Bag’dodni qo’lga kiritib, Ma’munning xalifalik taxtiga o’tirishigan o’z hissasini qo’shdidi. Xalifa Ma’mun hokimiyatni 819-yilga qadar Marvda turib boshqardi. Uning buyrug’i bilan xizmatlari evaziga Tohir ibn Husayn 819-yilga qadar Bag’dod hokimi handa harbiy garnizon boshlig’i bo’ladi. Ma’mun Marvligidayoq o’z atrofiga olim-fuzalolarni to’plagan. U 819-yilda Bag’dodga borgach, “Bayt-ul

¹ Ph.D, Buxoro davlat universiteti dotsenti, t. f. f. d.

² Buxoro davlat universiteti Tarix yo’nalishi talabasi



hikma"- Fanlar akademiyasiga asos soldi. Demak, bu maskanning asosini avvalo, movarounnahrlik, turkistonlik olimlar tashkil etgan.

ASOSIY QISM

Manbalarda Buxoro vohasisning Somoniylar boshqaruviiga o'tishi haqida shunday yozib qoldirilgan: "Ikki yuz oltmishinchı muborak ramazon oyining o'n ikkinchisi (1 iyul, 874 yil) dushanba kunida sodir bo'ladi va shu sababli shahar tinchidi, Buxoro aholisi qiyinchlikdan qutulib rohatga yetishdi. Shu yili Movarounnahrning Jayhun daryosidan tortib Mashriq shaharlarining eng yirog'igacha bo'lgan barcha yerlar hukmronligi amir Nasr ibn Ahmadga berilganligi haqida xalifa Muvaqqat Billohdan farmon keltiradilar va Buxoro xutbani amir Nasr ibn Ahmad va amir Ismoil nomiga o'qidilar. Yaqub ibn Lays nomi xutbadan tushirildi." [2]

Buxorolik tarixchi Narshaxiyning malumotiga ko'ra, IX asrda Movarounnahrda asosiy hokimiyat buxorudot yoxud somon xudotlar qo'lida bo'lgan. Buxorolik savdogarlarning Somonxudotlar ustidandan shikoyat qilib Xuroson noibiga murojaat qilishgandan bilish mumkinki, mamlakat Arab xalifaligiga siyosiy tobe bo'lgan(Yuldosheva, 2022).

Ammo Ismoil Somoni davrida Somoniylarning siyosiy nufuzi ortgan. Jumladan, amir Ismoil Buxoro vohasining atrofini o'rabi turgan qadimiy mudofaa devori "Kampirak devor"ning har yilgi hasharini to'xtatgan. Narshaxiyning yozishicha, amir Ismoil o'zining kuchli qo'shinlarini nazarda tutib, "Toki men tirk ekanman, Buxoro viloyatining devorlari men bo'laman", deb aytgan ekan. [3]

Somoniylar davrida ichki bozorda "fals" deb ataladigan mis chaqa tanga, xalqaro savdo-sotiqla esa kumush tanga – "dirham"lar ishlatilar edi. Somoniylar "ismoiliy", "musayyabiy", "muhammadiy", "fitrig'iy" nomlari bilan ataladigan bir necha kumush dirhamlar ham chiqargan. [4]

Bu davrdagi davlatlardan yana biri Qoraxoniylar davlatidir. Qoraxoniylar Sharqiy Turkiston, Yettisuv hamda Tyanshan tog'ning g'arbiy qismmini o'z ichiga olgan o'rta asrlardagi yirik davlalardan biri bo'lgan. Uning boshqaruvi tuzilishi somoniylar davridagi singari dargoh va devonga bo'lib boshqarilgan. Bu davlat asoschisi tarixiy manbalarda keltirilishicha, Abulsotuk Bug'roxon 859-955-yillarda hukmronlik qilgan. Bu davlatda hukmronlik merosiy bo'lib, otadan-bolaga o'tgan.

Hoqonlikning ulug' hojibi hoqon bilan fuqarolar o'rtasida vositachilik qilgan. Hoqon saroyida og'ichi (shoyi kiyimlar xazinachisi), biruk (me'monlarni qabul qilish bo'yicha muttasadi), oshchi (xoqon oshxonachi boshlig'i), bitikchi, kotib (mirzo), qushchi (xoqonning ovinining tashkilotchisi), chovush (kichik zabit), ayilboshi (sipohiyalar to'dasi qo'mondoni) kabi lavozimlar bo'lgan.

Qo'shin o'nlik, yo'zlik, mingliklarga bo'lingan. Mamlakatda elchi yalavoch, yalabor deb atalgan. Xoqonlik hududi el, viloyatlarga bo'lingan. XI asrning 3-choragida Qoraxoniylar siyosiy jihatdan g'arbiy va sharqiy qoraxoniylarga bo'lingan. Movarounnahrda hukmronlik qilgan qoraxoniylar namoyondalari bundan buyon markazga bo'ysunishdan bosh tortadi va mustaqil siyosat yurgiza boshladilar [8]. Mazkaz ularni bo'ysundirishga ojizlik qilgan.

X asr oxirida Somoniylar davlati o'rnida ikkita yangi davlat tashkil topdi: biri Qoshqardan Amudaryogacha cho'zilgan Sharqiy Turkistonning bir qismi Yettisuv, Shosh, Farg'ona va qadimgi So'g'ni o'z ichiga olgan Qoraxoniylar davlati bo'lsa, ikkinchisi Shimoliy Hindistondan Kaspiy dengizingin janubiy qirg'oqlarigacha bo'lgan G'aznaviylar davlati edi. [7]

G'aznaviylar Xuroson, Shimoliy Hindiston, qisman Movarounnahr va Xurosonda 962-1186-yillarda hukmronlik qilgan turkiy suloladir. Sulolaga somoniylar lashkarboshisi Attegin asos solgan. Sulola nomi davlat poytaxti G'azna shahridan olingan. Alptegin G'azna va Kobul viloyatlarini 962-yildan mustaqil boshqarishga intilgan. Uning o'limidan so'ng Ishoq va g'ulomi Bilgategin shuningdek, Piritegin hukmronlik qilgan davr (963-997) da g'aznaviylarning mulki kengaymagan. Alpteginning kuyovi va g'ulomi Sabuktegin hukmronligi davrida (977-997) mustaqil siyosiy kuch sifatida Somoniylar tomonidan e'tirof etilgan. [6] Somoniylarning zaiflashuvi G'aznaviylarning davlat sifatida shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qilgan.



O'rganilayotgan davrdagi yirik davlatlardan biri Saljuqiylardir. Saljuqiylar tufayli Kichik Osiyoda turkiy xalqli davlatga asos solinadi. Shuning uchun ham hozirgi Turkiya xalqi Turkistonni ota yurtimiz ya'ni, tarixiy vatanimiz deb ataydi.

Saljuqiylar shohi Malikshoh 1040-yida Xorazmni egalladi va o'zining lashkarboshilaridan biri hisoblanmish Anushteginni noib etib tayinladi.

So'nggi "ulug' saljuqiy sulton" hisoblanmish Sulton Sanjar va sharqdan kirib kelgan qoraxitoylar Xorazmshohlar inqirozi uchun birinchi qadam bo'lga[9], sharqdan kirib kelgan mo'g'ullar davlatni tugatilishiga sabab bo'ldi. Bu bosqin o'zini "Iskandari Soniy" deb atashlarini yoqtiradigan hukmdor Alouddin Muhammad Xorazmshoh davriga to'g'ri keladi.

Chinxizzonning bosqini xususida vengr sharqshunosi Vambern shunday yozadi "Termizdan so'ng talon-taroj qilishga Kunqurt hamda Somon (Shahrisabz) nohiyalari qoldi. Shundan keyin Jayhun va Sayhun bo'yidagi yerlar tamoman xarob qilindi. Bu yerlar islom madaniyatining uzoqdagi burjlari sanalar edi. Boylikka o'ch, ko'zi och vaxshiylar bosqin safarini davom ettirdilar. Mo'g'ullar avvalo, forslarning Makkasi, "Qubbat-ul islom" deb atalgan, 1200 masjidi bo'lgan Balxni, so'ogra Tolqon, Hirot va ulug' savdogarlar shahri Mavralrudin, madrasalari bilan mashhur Marvni, mag'rur Nishopurni xarob ettilar". [12]

Mo'g'ullarning bu talonchilik yurishlarini qadimgi dunyo tarixidagi vandallarning Rim imperiyasini egallashi jarayonidagi vayrongarchiligiga tenglashtirilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Vaholanki, bu ikki qabila ham bosib olingen hududlarining ilm-fani, me'morchiligi va san'atini to'g'ri baholay olmagan.

IX-XIII asrlarda Somoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davlatlarida O'rta Osiyo xalqlarining Yaqin va O'rta Sharq davlatlari bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantirishga qulay sharoit yaratilgan. [10]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, IX-XIII asrlarda Movarounnahr zaminida hukm surgan Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Xorazmshohlar davlatlari o'zbek davlatchilik tarixida muhim iz qoldirdi. Bu davlatlar siyosiy mustaqillik uchun kurashib, hudud iqtosodiy jihatdan yuksaldi. Buxoro, Samarqand, Kesh, Nasaf, Urganch, Xiva singari shaharlar savdo-sotiq va ilm-marifat o'chog'iga aylandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Murtazayeva R. O'zbekiston tarixi. - Toshkent, 2004. - B.31.
2. Abu Bakr Narshaxiy. Buxoro tarixi. - B.44.
3. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi . - Toshkent, 2004, - B.100.
4. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi. - Toshkent, 2004. - B.114.
5. Madrahimov Z.Sh. O'zbekiston davlatchiligi tarixi fanidan o'quv uslubiy majmua.- Namangan, 2022. - B.58.
6. Bosvort K. E. "Мусульманские династии" - M.: 1971.
7. Saidboboyev Z. Tarixiy geografiya. – T.: Noshir, 2010. - B.112.
8. Mirjonovna, Y. B. (2021). CHO'L SHAMOLLARINING BUXORO SHAHAR TARIXIDA TUTGAN O'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 637-645.
9. Jabborov I . Buyuk Xorazmshohlar davlati. – Toshkent. Sharq,1999. - B. 126.
10. Murtazayeva R. O'zbekiston tarixi. – Toshkent., 2014. – B.18.
11. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi. – Toshkent., 2014. - B.153.



12. Vamberi H. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. – Toshkent. G’afur G’ulom, 1990. - B.26.
13. Shoimardonkulovich, Y. D., & Kadirovna, S. N. (2022). GREEN FACTOR OF ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 23, 102-104.
14. Mirjonovna, Y. B. (2021). Question About the Environment: Has the Historian Studied the Environmental Problem?. *Academicia Globe*, 2(01), 10-17.
15. Юлдошева, Б. М. (2021). ЭКОЛОГИК МУАММОЛАР: ХАЛҚАРО ҲАМЖАМИЯТ МУНОСАБАТИ ВА ТАРИХИЙ ЁНДАШУВ: Юлдошева Бибиражаб Миржоновна Бухоро давлат университети докторанти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5).
16. Юлдошева, Б. М. (2022). ПАХТА МОНОПОЛИЯСИНИНГ БУХОРО ШАҲАР АТРОФ МУҲИТИГА ТАҲСИРИ (XX АСР ДАВОМИДА): Юлдошева Бибиражаб Миржоновна, Бухоро давлат университети таянч докторанти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, 5, 46–51.
17. Mirjonovna, Y. B. (2021). Question About the Environment: Has the Historian Studied the Environmental Problem? *Academicia Globe*, 2(01), 10–17.
18. Yuldasheva, B. M. (2022). SOMONIYLAR VA QORAXONIYLAR DAVRIDA BUXORO SHAHAR MADANIYATINING RIVOJLANISHI VA ATROF-MUHITGA MUNOSABAT. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1307–1313.

